

INGLIZ TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Sodiqova Mumtozbegin Olimjon Qizi

The Uzbekistan State World Languages University

Faculty of Foreign language and Literature

sodiqovamumtozbegin@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17164050>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar tahlil qilinadi. Xususan, ona tilidan foydalanishning me'yori, doskadan samarali foydalanish, o'qituvchi va o'quvchi nutqi muvozanati, elisitatsiya usuli, shuningdek, juftlik va guruhli ishlash metodlarining afzalliklari yoritilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarda nafaqat grammatik bilimlarni, balki kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Ingliz tili, ona tili, doska, o'qituvchi nutqi, o'quvchi nutqi, elisitatsiya, juftlik ishlari, guruhli ish.

Abstract. This article analyzes the main principles applied in teaching English. In particular, it highlights the appropriate use of the mother tongue, the effective use of the blackboard, the balance between teacher and student speech, the elicitation method, as well as the advantages of pair and group work. These methods serve not only to develop students' grammatical knowledge but also to foster their communicative skills.

Keywords. English language, mother tongue, blackboard, teacher's speech, student's speech, elicitation, pair work, group work.

Аннотация. В данной статье анализируются основные принципы, применяемые в преподавании английского языка. В частности, рассматриваются нормы использования родного языка, эффективное использование доски, баланс речи преподавателя и учащихся, метод элицитации, а также преимущества парной и групповой работы. Эти методы способствуют формированию у учащихся не только грамматических знаний, но и коммуникативных навыков.

Ключевые слова. Английский язык, родной язык, доска, речь преподавателя, речь учащихся, элицитация, парная работа, групповая работа.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini o'rganish va o'qitish jarayoni butun dunyo ta'lim tizimida eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ingliz tili xalqaro muloqot, fan-texnika yutuqlari, biznes va ta'lim sohalarida asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois ingliz tilini o'rgatish jarayonida samarali metod va vositalardan foydalanish nafaqat tilni o'rganuvchilar uchun, balki butun ta'lim jarayoni uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Tilni o'qitishda bir qator muhim jihatlar mavjud: ona tilidan foydalanish masalasi, doskadan to'g'ri foydalanish, darsdagi suhbat balansini saqlash, elisitatsiya (javoblarni o'quvchilardan chiqarib olish) usuli hamda juftlik va guruhli ishlash metodlari. Ushbu maqolada mazkur jihatlar ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi.

Albatta, dars jarayonida ona tilidan foydalanish bilan bir qatorda ingliz tilidan maksimal foydalanish muhimdir. Til o'rgatish jarayonida asosiy maqsad — o'quvchilarni ingliz tilida fikrlash va muloqot qilishga o'rgatishdir. Shu sababli, ayniqsa o'rta va yuqori bosqichlarda barcha tushuntirishlar, grammatik izohlar va topshiriqlar ingliz tilida berilishi kerak.

Boshlang'ich bosqichda esa ayrim hollarda ona tilidan foydalanishga to'g'ri kelishi mumkin. Chunki yangi o'quvchilar ba'zi tushunchalarni faqat tarjima orqali tezroq anglaydilar. Biroq asta-sekinlik bilan ingliz tilidan ko'proq foydalanish zarur. Yangi so'z va iboralarni tasvirlar, imo-ishoralar yoki amaliy ko'rsatmalar orqali tushuntirish samaraliroqdir.

Shuningdek, darsning dastlabki bosqichlarida "sinf tili"ni o'rgatish muhimdir. Masalan: "Open your books", "Work in pairs", "Turn to page 10" kabi iboralar muntazam takrorlanib, amaliy mashqlar orqali mustahkamlanishi kerak.

Darsda doskadan foydalanishning ahamiyatiga kelsak, o'qituvchining doskadan foydalanish uslubi dars samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dars davomida doskaga yozilgan har bir ma'lumot odatda o'quvchilarning daftariga ham ko'chiriladi. Shu sababli, yozuv tartibli, tushunarli va qulay bo'lishi lozim. Amaliyotda ko'plab o'qituvchilar doskani bo'limlarga ajratadilar: grammatik tushunchalar, yangi so'zlar, talaffuz, uy vazifalari va h.k. Bunday tizimlashtirish o'quvchilarga materialni eslab qolishda yordam beradi. Shuningdek, yozuv paytida sinfga orqa o'girib olmay, yonboshdan yozish odati o'qituvchi uchun foydalidir. Bu usul intizomni saqlashga yordam beradi va ayniqsa bolalar bilan ishlashda muhimdir.

Til o'rganishda suhbat asosiy vositalardan biridir. Dars davomida doimo o'qituvchi gapirsa, o'quvchilar faol ishtirok eta olmaydilar. Shu sababli o'qituvchi nutqi (Teacher Talking Time — TTT) va o'quvchi nutqi (Student Talking Time — STT) muvozanati ta'minlanishi zarur. Ideal nisbat — 80% STT va 20% TTT. Yangi o'qituvchilar ko'pincha hayajon sababli ko'proq gapiradilar, biroq tajribali o'qituvchilar o'quvchilarga kengroq so'z beradilar. Juftlik ishlari, guruhli muhokamalar va savol-javob metodlari bu borada samarali hisoblanadi.

Elisitatsiya usuli o'qituvchining tayyor bilimni berishi emas, balki savollar orqali o'quvchilardan javoblarni chiqarib olishiga asoslanadi.

Masalan, xona ichidagi buyumlar rasmini ko'rsatib, ularning nomini o'quvchilarning o'zlari aytib berishi yoki sifatlarning qiyosiy darajalarini o'quvchilarning o'zlari mustaqil topishlari mumkin.

Bu usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ilgari o'zlashtirgan bilimlarni faollashtirish va yangi bilimlarni qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini aniqlab oladi.

Endi esa juftlik va guruhli ishlashning afzalliklari haqida so'z yuritamiz. Juftlik va guruhli ishlash zamonaviy ta'lim jarayonining samarali metodlaridan biridir. Juftlik ishida o'quvchilar ikki kishidan, guruhli ishda esa 3–5 kishidan iborat bo'ladi.

Ushbu metodning afzalliklari:

- *dars jarayonida xilma-xillik paydo bo'ladi;*
- *o'quvchilar o'zlariga qulay tezlikda ishlaydilar;*
- *barcha o'quvchilar faol ishtirok etadilar, hech kim chetda qolmaydi;*
- *bilim almashinuvi amalga oshadi;*
- *STT ko'payadi, TTT kamayadi;*
- *o'quvchilar mustaqil ishlashga o'rganadilar.*

Masalan, 20 nafar o'quvchidan iborat sinfdan umumiy muhokama o'tkazilsa, har bir o'quvchiga atigi 1 daqiqalik nutq imkoniyati to'g'ri keladi. Ammo juftliklarda ishlash 20 daqiqa davom etganda, har bir o'quvchi 10 daqiqa davomida ingliz tilida gapirish imkoniga ega bo'ladi.

Xulosa

Ingliz tilini o'qitishda ona tilidan me'yorida foydalanish, doskadan samarali foydalanish, darsda o'quvchi nutqini oshirish, elicitatsiya usulidan foydalanish hamda juftlik va guruhli ishlash metodlarini qo'llash o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar dars samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni ingliz tilida erkin muloqot qila olishga tayyorlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Pollard, L. (2008). The Practice of English Language Teaching. London: Longman.
2. Harmer, J. (2015). How to Teach English. Pearson Education Limited.
3. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman.
4. Larsen-Freeman, D. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.